



VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLARNI
OLDINI OLIH VA PROFILAKTIKA QILISH

Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11447834>

Annotatsiya. ushbu tezisda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish, uni profilaktika qilish, mazkur jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha belgilangan huquqiy norma va qonunlar mazmuni, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika qilish orqali jinoyatlar sonini keskin kamaytirishga oid muammolar, ularni yechish yo'llariga oid tavsifalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, jinoyat, tergov, huquqiy asos, huquq, profilaktika, me'yoriy hujjatlar, qonun va qonunosti hujjatlari, modda, ijtimoiy soha.

Аннотация. в данной дипломной работе содержится информация о содержании установленных правовых норм и законов по предупреждению, профилактике преступлений, совершаемых несовершеннолетними, повышению эффективности данного процесса, о проблемах, связанных с резким сокращением числа преступлений путем предупреждения и профилактики преступности среди несовершеннолетних, о рекомендациях по их решению. **Ключевые слова:** несовершеннолетний, преступление, расследование, правовая основа, право, профилактика, нормативные акты, закон и подзаконные акты, статья, социальная сфера.

Annotation. this thesis provides information on the content of the established legal norms and laws on obtaining, prophylaxis of crimes committed by minors, improving the effectiveness of this process, problems related to a sharp reduction in the number of crimes between minors by preventing and prophylaxis, recommendations on ways to solve them. **Keywords:** minor, crime, investigation, legal basis, Law, prevention, regulatory documents, law and legislative acts, article, social sphere.

Ma'lumki, jinoyatlarning oldini olish va profilaktika qilish deyarli barcha jinoiy huquqiy fanlarda o'rganiladi. Misol tariqasida aytish mumkinki, kriminologiya fanida o'rganiladigan jinoyatlarning oldini olish va profilaktika qilishda eng asosiy o'rinni jinoyat sabablari va uni keltirib chiqarish omillarini bartaraf etish masalalari egallaydi. Bunda umumiy va maxsus profilaktika tushunchalari farqlanadi. Shuningdek, oldini olish va profilaktika tushunchalariga ham turlicha ta'rif beriladi. Jinoyatlarni oldini olish va profilaktika qilish faoliyati





turli xil organlar tomonidan amalga oshiriladi, ular sirasiga prokuror, sud, tergovchi, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha komissiyalar va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, ushbu masalalar jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi doirasida ham o'rganiladi. Bu esa aynan bir fanga tegishli bo'lgan oldini olish va profilaktika doirasini ajratishda ko'pgina qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Profilaktika va oldini olish masalalari bo'yicha turli tadqiqotchilarning fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, jumladan, G'.A.Abdumajidovning fikricha, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari bo'yicha tergovchining profilaktik faoliyatining asosiy maqsadi muayyan jinoyatning sodir etilishi yoki takrorlanishiga olib keladigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iborat¹.

Voyaga yetmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi, uzluksiz ta'lim jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar u bilan yetarli darajada individual tartibda shug'ullanmaganligidan dalolat beradi deb ta'kidlaydi G.Z.Tulaganova².

T.V.Averyanova, R.S.Belkin, Y.G.Koruxov va Y.R.Rossiyskayalarning fikricha ham, tergovchining voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha profilaktik chora-tadbirlaridan ko'zlangan asosiy maqsad aniq bir jinoyatni yoki kelajakda residiv jinoyatni sodir etilishiga turtki bo'lgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iborat. Tadqiqotchilar qayd etishicha, voyaga yetmaganing jamiyatga qarshi va jinoiy xulq-atvori kelib chiqishi va shakllanishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

-voyaga yetmaganning tarbiyasiga oila a'zolari (vasiy, homiy, tarbiya muassasasi)ning mas'uliyatsiz yondashuvi, maktab va boshqa o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiya ishlarining yetarlicha amalga oshirilmaganligi;

-voyaga yetmaganning salbiy muhit (oilal, maktab, internat, ish joyi va h.k.)da yashashi;

-voyaga yetgan yoki katta yoshdagi voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishga undashi;

-voyaga yetmaganlar o'rtasida profilaktika ishlari o'tkazishi lozim bo'lgan organlar faoliyatidagi kamchiliklar.

Mualliflar tomonidan tergovchi amalga oshirishi mumkin bo'lgan profilaktik chora-tadbirlar sirasiga quyidagilar kiritiladi:

-voyaga yetmaganing salbiy tarbiyalanishiga sabab bo'lgan yoki unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shaxslarni aniqlash hamda ularning ushbu faoliyatiga barham berish (mazkur chora-tadbir voyaga yetmaganning tarbiyasi bo'yicha kimga va

¹ Абдумажидов Ф.А. Криминалистика. - Т.: Адолат, 2003. - Б.213.

² Тулаганова Г.З. Жиноят процессида эҳтиёт чораларининг қўлланилиши муаммолари: Ўқув қўлланма. - Т.: ТДЮИ, 2005. - 160 б.





qanday majburiyatlar yuklatilishini belgilovchi qonun hujjatlari tizimini inobatga olgan holda amalga oshiriladi);

-voyaga yetmaganni ish bilan ta'minlash, umumiy o'quv muassasalariga yoki maxsus o'quv muassasalariga yuborish; voyaga yetmagan o'g'li (qizi)ga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum etish hamda unga vasiy yoki homiy tayinlash choralarini ko'rish;

-voyaga yetmaganning xatti- harakatlariga atrof-muhitning ta'siri sezilsa, unda tergovchi tomonidan tegishli tashkilot, muassasaga rasmiy xat bilan murojaat etish;

-voyaga yetmaganning huquqiy tarbiyalanishi va jinoyatlarning profilaktikasi maqsadida ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish va boshqalar³.

Bir guruh olimlarning fikricha, tergov jarayonida eng asosiy e'tibor voyaga yetmagan huquqbuzarlarning o'ziga, boshqa jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan voyaga yetmaganlarga, ulardan tashqari o'z farzandlariga yomon ta'sir ko'rsatayotgan katta yoshdagilarni tarbiyalashga qaratiladi. Tarbiya va jinoyatlarning oldini olish ishlari tergovchi tomonidan jinoyatning sabablari va sharoitlarini aniqlash asosida olib boriladi. Voyaga yetmagan huquqbuzar bilan suhbat o'tkazish bilan bir vaqtda amaliy chora-tadbirlar ham o'tkazilishi kerak. Bunda voyaga yetmaganni mehnatga jalb etish, ijtimoiy hayotga qaytarish va unga salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga, shuningdek, voyaga yetmagan jabrlanuvchi huquqbuzarlarning tarbiyasiga ham e'tibor qaratish lozim. Tergovchi tomonidan tergovga aloqador bo'lmagan, ammo huquqqa xilof xulq-atvorga ega bo'lgan shaxs haqida ma'lumot bo'ladigan bo'lsa, bu haqida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga ma'lumotlar yuboradi. Voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha bir qator taqdimnomalar yuboriladi, shular Ichida:

-voyaga yetmaganlarning oiladagi, ish joyidagi, o'qish joyidagi tarbiyasi;
-oldini olish va profilaktika qilish faoliyati;
-ilk profilaktikadagi; ommaviy axborot vositalaridagi kamchiliklar haqida hujjatlar yuboriladi⁴.

Shunday qilib, tahlil etilgan mualliflar jinoyatlarning oldini olish va profilaktika qilish tushunchalaridagi o'zaro farqlarni chegaralamaydi. Aslida jinoyatlarning oldini olish bu maxsus faoliyat bo'lib, jinoyat sodir etilganidan so'ng voyaga yetmagan ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslardagi huquqqa xilof xulq-atvorni bartaraf etish va keyingi residiv (takrorlanish) jinoyatlarning oldini olishdan iborat. Profilaktika faoliyati esa, umumiy xarakterga ega bo'lib,

³ Аверьянова Т.В., Белкин Р.С., Корухов Ю.Г., Российская Е.Р. Криминалистика. Учебник для вузов. - М.: Издательство НОРМА, 2000. - С.323; Белкин Р.С. Криминалистика. - М.: НОРМА, 2001. - С.990.

⁴ Драпкин Л.Я. Криминалистика. - М.: Закон и общество, 2013. - С.253.





kelajakda jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslarning jinoyatchiligining oldini olish, ularni jinoyatchilikning oqibatlarini haqida ogoh etish va jinoyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iborat.

Bu boradagi milliy qonunchiligimizni tahlil etadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish faoliyati O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni⁵ga asosan amalga oshiriladi. Mazkur qonunga muvofiq voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora- tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktika sig'a doir faoliyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart- sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash; voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish; ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish; voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti- harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi: voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar; ichki ishlar organlari; ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari; vasiylik va homiylik organlari; sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari; mehnat organlari.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga binoan voyaga yetmaganlarni tergov qilish ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishini inobatga olib, mazkur sub'ektlarning voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi yuzasidan faoliyati yuqorida nazarda tutilgan

⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги "Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида"ги ЎРҚ-263-сон қонуни. «Халқ сўзи» газетасининг 2010 йил 30 сентябрдаги 190 (5105)-сонида эълон қилинган.





qonun asosida tartibga solinadi. Ushbu qonunning 10-moddasida belgilanishicha, "Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy- huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan iboratdir. Ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko'rsatadi".

-Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi;

-qidiruv e'lon qilingan voyaga yetmaganlarni, shuningdek ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda belgilangan tartibda ularni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlarga yoki muassasalarga yuboradi;

-voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga jalb qilayotgan yoxud voyaga yetmaganlarga nisbatan boshqa g'ayrihuquqiy qilmishlar sodir etayotgan shaxslarni, shuningdek, voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalarni yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni aniqlaydi hamda ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarni qo'llash to'g'risida tegishli davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

-voyaga yetmaganlarning, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek boshqa shaxslarning voyaga yetmaganlarning huquqlari,

-erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqadi;

-huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'sir choralarni qo'llash to'g'risida voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli organlar va muassasalarga takliflar kiritadi;





-voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun ularga taalluqli hujjatlarni tayyorlaydi;

-voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari faktlari, shuningdek ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlar to'g'risida tegishli davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

-huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlarni, shuningdek nazoratsiz va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ichki ishlar organlariga olib boradi, bu haqida zudlik bilan bayonnoma tuzadi hamda voyaga yetmaganlar keltirilganligi haqida ularning ota-onasini yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni xabardor qiladi;

-voyaga yetmaganlarning yashash, o'qish (ish) joyidagi ta'lim, madaniy-ko'ngilochar, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to'garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o'rganadi;

-voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida tegishli davlat organlariga hamda boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

-voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlari to'g'risidagi materiallarning tegishli organlar va muassasalar tomonidan ko'rib chiqilishida ishtirok etadi;

-voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti - harakatlarning, voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning hisobini yuritadi, shuningdek statistika hisobotini tuzish uchun zarur bo'lgan axborotni yig'adi va umumlashtiradi;

-yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirishda vasiylik va homiylik organlariga ko'maklashadi.

Ushbu o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-son qarori





hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-oktyabrdagi "Respublika o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 880- son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Demak, ichki ishlar organlari tomonidan, birinchi navbatda, yakka tartibdagi profilaktika ishi amalga oshirilib, ichki ishlar organlari ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini uning shaxsi va yon-atrofidagilarning o'ziga xos xususiyatlarini, sodir etilgan huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning xususiyatini, oilaviy tarbiya sharoitlarini hisobga olgan holda olib boradi. Ushbu holatlar voyaga yetmagan, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar, boshqa shaxslar bilan profilaktika suhbatlarini o'tkazish, voyaga yetmaganni uning yashash, o'qish (ish) joyiga borib ko'rish, tavsiflovchi materiallarni o'rganish davomida aniqlanadi.

-Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib borish davomida: voyaga yetmaganning turmush tarzi, aloqalari va niyati aniqlanadi;

-voyaga yetmaganga huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishning oqibatlarini tushuntiriladi;

-voyaga yetmaganning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishi sabablari va shart- sharoitlari aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar ko'riladi;

-voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etayotgan shaxslar aniqlanadi va ularni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga doir chora-tadbirlar ko'riladi;

-voyaga yetmaganga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslar jalb etiladi;

-voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlikda voyaga yetmaganni saqlash, tarbiyalash, unga ta'lim berish, uning bandligi va dam olishini tashkil etish masalalari hal etiladi.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining profilaktika inspektori ma'muriy hududda mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop- moddalar va aqliroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa-moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sabablari va shart- sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha maxsus profilaktika tadbirlarini hududiy ichki ishlar organi yoki huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan maxsus reja, dastur va boshqa boshqaruv qarorlari asosida ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari,



shuningdek huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora- tadbirlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan sub'ektlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning ishlari tegishli tartibda ko'rib chiqilgandan so'ng, jazoga hukm qilingan voyaga yetmaganlar ustidan doimiy nazoratni faqatgina profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklab qolmay, ushbu jarayonga hokimlik, ta'lim sohasidagi hududiy davlat boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari hamda boshqa mas'ul organlarni ham jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni oldini olish va profilaktika qilishda jinoiy jazolarning o'рни juda muhim hisoblanib, u yoki bu jazo qo'llanilishi yoki qo'llanmasligi keyinchalik jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Bu borada, G.Z.Tulaganovanning asosli ta'kidlashicha, jinoiy jazolarning yanada liberallashtirilishi voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bilan bir qatorda, jinoyatchilikni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 81-moddasiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga jarima; axloq tuzatish ishlari; ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish kabi jazolar qo'llanilishi mumkin.

Ushbu jazo turlaridan tashqari, voyaga yetmaganlarga nisbatan yengilroq jazolar qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Misol tariqasida, RF Jinoyat kodeksining 88-moddasiga ko'ra ko'pincha voyaga yetmaganlarga nisbatan ahloq tuzatish ishlari jazosidan yengilroq bo'lgan majburiy ishlarga jalb etish jazosi qo'llaniladi. Majburiy ishlar o'qish yoki asosiy ishdan tashqari vaqtda haq to'lanmaydigan foydali jamoat ishlari bilan shug'ullanishga jalb etishdan iborat bo'lib, kuniga 2-3 soatdan oshirilmasligi lozim.

RFda 2018 yil davomida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni ko'rib o'tadigan bo'lsak, majburiy ishlar eng ko'p qo'llangan jazo turi hisoblanadi (4 205 nafar shaxsga nisbatan qo'llanilgan). Y.A.Kashuba va Yu.V.Bakaevalarning qayd etishicha, ushbu jazo turining qo'llanilishi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini keng qo'llash tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

AQSh va Kanada mamlakatlarida ham ushbu jazo turi voyaga yetmaganlarga nisbatan keng qo'llaniladi.

Fikrimizcha, ushbu jazo turini milliy qonunchiligimizga ham kiritish hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan keng qo'llash ularda keyinchalik takroran jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.





Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833- son qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi nizomga ko'ra,

-respublika komissiyasi, shuningdek mintaqaviy komissiyalar, tuman (shahar) komissiyalari (hududiy komissiyalar) o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi organlar hisoblanib, ular voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug'diruvchi sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

-voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

-ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish maqsadida idoralararo hamkorlik kuchaytirilib, tezkor-qidiruv, surishtiruv va tergov faoliyatini muvofiqlashtirish hamda profilaktik tadbirlarning sifatini oshirish choralari ko'rilgan.

Bundan tashqari, mahallalarda muhokamalarning o'tkazilishi ham amaliyotda ijobiy natija berib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin: voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha kriminalistik oldini olish va profilaktika qilish tergovni olib borayotgan shaxs, ya'ni prokuror yoki tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanib, uning asosiy maqsadi jinoyatni oldini olish, voyaga yetmagan ayblanuvchining keyinchalik jinoyat sodir etishini profilaktika qilish va umuman jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat. Bu faoliyat jarayonida voyaga yetmagan ayblanuvchi, gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchining xulq-atvoriga e'tibor qaratish bilan bir qatorda, voyaga yetmagan jabrlanuvchining ham huquqqa xilof xulq-atvoriga e'tibor qaratish lozim. Bu faoliyatni amalga oshirish jarayonida tergovchi turli xil usullardan foydalanadi. Shu kabi usullarga voyaga yetmaganlarning yashash va tarbiya sharoiti, oilasi, o'qishi, qiziqishlari haqidagi ma'lumotlarni aniqlaganda, unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxslarning ro'yxatini tuzib, ularning ta'siridan himoya qilish usuli, voyaga yetmagan shaxsni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish, ularga nisbatan tarbiya choralari qo'llash,



shuningdek psixolog bilan suhbatlar uyushtirish, suhbatlar o'tkazish va boshqa bir qator usullar kiradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 7fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Черненко Е.О. Профилактика несовершеннолетней преступности //Nauka-rastudent.ru. - 2017. No.08(044)/[Электронный ресурс]-Режим доступа.-URL:<http://nauka-rastudent.ru/44/4337/>
3. Гаджиева П.Д., Магомедов Г.Н. Социально-психологическая характеристика преступности в молодежной сфере // Международный научный журнал «Символ науки». 2017. № 11. С.67.
4. Демидова-Петрова Е. Специфика преступности несовершеннолетних как одного из видов преступности в Российской Федерации //Ученые записки Казанского юридического института МВД России. - 2017. - Том 2 (3). - С.15.
5. Хармаев Ю.В., И.Батчулуун. К вопросу о преступности несовершеннолетних в Российской Федерации и Монголии //Вестник Югорского государственного университета. 2018. - Выпуск 2 (49). С. 79-84.
6. Решетников А.Ю. Криминология. М., 2014. -С. 8.
7. Королева О., Ваульхин В. Преступность несовершеннолетних и меры её предупреждения // Мир науки и образования. - 2015. - № 4. - С. 3.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-139-сон. 07.01.2008 й.

